

## IQBOL MIRZO LIRIKASIDA IJTIMOYLIKNING BADIY IFODASI

**Murodillayeva Madina Otabek qizi**

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistranti*

**Abstract:** *This article analyzes Iqbal Mirza's individual style in social lyrics, the impact of meaning in his examples inspired by the spirit of sociality. Consequently, the importance of his poems, which highlight the shortcomings of today's social life, is emphasized.*

**Keywords:** *social lyrics, creator, finger weight, allegory, individual style, character, war scenes, folk past, corruption, social networks, corrupt officials.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируется индивидуальный стиль Икбала Мирзы в социальной лирике, влияние смысла в примерах, навеянных духом социальности. Поэтому особо обсуждалось значение его стихов, обнажавших недостатки сегодняшней общественной жизни.*

**Ключевые слова:** *социальная лирика, автор, вес пальца, аллегория, индивидуальный стиль, персонаж, военные сцены, прошлое народа, коррупция, социальные сети, коррупционеры.*

Ijtimoiy lirika - ona yurtga sadoqat va muhabbat, inson erkinligi va ozodligini anglatib, ommani to'g'ri yo'lga undash hisoblanadi. Bunday ijod namunalarida lirik qahramon o'zining kindik qoni to'kilgan zamin oldidagi sharaflı burchining qay darajada ekanligini teran anglaganligida namoyondir. "Ijtimoiy lirika" "xalq tarixining muayyan bosqichidagi dolzarb masalalarni ko'tarib chiqish" va ularga aktiv munosabat bildirish bilan xarakterlanadi. [4;24] Jumladan, Iqbol Mirzo she'riyatida ijtimoiylikni o'tkir va keskir xususiyatga egaligi oydinlashgan.

Kim qora chiqroqqa moy topgan chog'lar,  
To'shak sukib, pilik eshgan zamonda.  
Zuhro yulduzidek mavjlanib porlar,  
O'zbek chiroqlari Afg'onistonda. [1;56]

Ushbu "O'zbek chiroqlari" nomli ijod namunasi orqali shoirning haqiqiy ma'noda millatparvar va xalq g'amini o'zining muammosi deb bilishini ko'rishimiz mumkin. Binobarin, o'zbek xalqining urush davridagi ahvoli "qora chiqroqqa moy topgan" va "to'shak sukib, pilik eshgan" misralari orqali ko'z o'ngimizda butun bir og'ir va qonli zamoni tasvirini gavdalandiradi. Bunday mahorat tahsinga loyiq, shubhasiz. Xalq boshiga tushgan shafqatsiz, siyosiy jarayonlarni haqqoniy olib chiqib, unga salbiy

munosabatini erkin bayon qilish va butun bir insoniyatga yetkazishni maqsad qilish har qanday ijodkordan ulkan jasorat talab qiladi.

Oqqoshshoni so‘kib, qarag‘ay kesgan,  
Qarg‘alar uchsa, ham entikkan uvol.  
Kir qorda handalak bo‘ylarin sezgan,  
Kiprigi yaxlagan mardikor - timsol!

Iqbol Mirzo jabr-zulmga to‘la o‘tmishimizda toptalgan g‘ururimizni, yerga urilgan insoniyeligimizni unutib bo‘lmasligini o‘zining bir qarashda yengil, ammo mungli qalb tug‘yonlari, alam va armon to‘la o‘y-mushohadalari orqali bayon qilgan. Mazkur “Mardikor” nomli she’rni o‘qiganda hayolimizda o‘sha jirkanch urushning xalqimiz boshiga solgan qora kunlari gavdalanadi. Mardikorlikka olingan o‘zbek erkaklari ahvolidan tortib beva qolgan ayollar-u yetim qolgan bolalarning qismati. Bularni eslashni o‘ziyoq kishini daxshatga soladi. Bundan tashqari, “oqqoshshoni so‘kib”, “qarg‘alar uchsa ham entikkan” so‘zlari o‘sha davridagi mardikorlikka olib ketilib, vafot etgan va shunchaki tashlab yuborilgan vatandoshlarimizning jasadlarini qarg‘alar-quzg‘unlarga yem bo‘lgani haqida voqealarga tarixdan guvohligimizni shoir achchiq iztirob bilan qalamga olgan.

Iqbol Mirzo ijodida mungli o‘ychan, misralardan tortib, sho‘x-shodon, so‘z o‘yinlariga asoslangan namunalarni ham uchratamiz. Shoir bir xillikdan chekingan holda yaratgan har bir asarini xilma-xillikka burkagan. Bir qarashda o‘ynoqi, yengil tuyilgan she’rlarining tag-tomiri jamiyatimizning dolzarb muammolari bilan bog‘langanini ko‘rish, ijodkorga tan bermasdan iloj yo‘qligini ayon qilib turadi.

Agar qo‘yib berilsa,  
Sayrab-sayrab sotarlar.  
Cho‘lponlar qaytib kelsa,  
Yayrab-yayrab otarlar. [2;298]

Yuqoridagi “Deydilar” nomli she’rida Iqbol Mirzoning fojiani qalbga komideya kabi singdirgan deb ayta olamiz. Misralardagi qisqalik, soddalik, jaydarilik eng muhimi o‘ynoqlik insonga tez ta’sir qilishi mumkin, ammo zamiridagi ma’noning teranligi va og‘riqli ekanligini hazm qilish amrimahol. Ayniqsa, “Cho‘lponlar qaytib kelsa, yayrab-yayrab otarlar” satrlari shafqatsiz va qorong‘u o‘zbek xalqining qonli o‘tmishidan xabar bermoqda. Qolaversa, Iqbol Mirzo kechagi kunning nohaqliklari va adolatsizliklari bilan cheklanib qolmasdan, bugungi kun jamiyatining kamchiliklari va kentiklarini xalqqa zamon bilan hamnafas talqinda yetkazib berishdagi induvidial uslub mahorati takrorlanmasdir.

Maymun yerning kindigiga cho‘p soldi,  
Qaldirg‘ochni chilvirilon o‘pvoldi.  
Surbetlikning o‘zi davlat bo‘bqoldi,

To'ng'iz tumshuq botirmagan soy bormi? [3;51]

Ushbu misralarni dastlabki o'qishdayoq salbiy ma'noning qalbimizga chuqur singib, teran mulohaza yuritishga sabab bo'layotganini sezamiz. Ijodkor XXI asrning jamiyati qay ahvolda ekanini hayvonlarning xarakterlarini vaziyatlarga moslab, majoziy - allegoriya qo'llash orqali yetkazib berishga harakat qilgan. "Ko'chimning bir turi allegoriyadir... Allegoriyaning ko'pchilik e'tirof etgan spetsifikasi mavhum tushunchalarni konkret narsa - hodisalar nomi bilan atashda namoyon bo'ladi". Yuqoridagi namunada tag ma'no inson qalbini junbushga keltirmay, o'zini va yon - atrofdagilarini isloh qilishga undamay qo'ymaydi desak adashmaymiz. Vaholanki, "Surbetlikning o'zi davlat bo'qoldi," misralarida shoir umumiy tarzda gapirmoqchi, ya'ni o'z mansabini suiiste'mol qilib, poraxo'rlik va noqonuniy tarzda yo'l tutib, xalqqa jabr qilayotgan amaldorlarni nazarda tutgan. Hech birimizga sir emaski, jamiyatimiz bugun bunday nopok kimsalardan aziyat chekmoqda.

She'riyat dunyoni o'rganish, shu dunyoning ijodkori - shoirning shaxsidan boshlash maqsadda muvofiq. Iqbol Mirzo ijod namunalari bilan tanishganimizda shoir shaxsiyatini she'riyatiga ko'chganligini guvohi bo'lamiz. Shoir tabiatidagi haqiqatga tik qarash va uni baralla ayta olish bevosita ijodining yuksak namunalari o'rin olgan. Iqbol Mirzo jamiyatdagi muhitiga befarq bo'lmagan holda ijodida uning qusurlarini oshkora olib chiqolgan qalami o'tkir ijodkor va uning lirikasida ijtimoiylik zamondosh shoirlariga nisbatan o'zgacha ma'no va ta'sir kuchiga ega.

Pora olib tursang, agar  
Ora-chora,  
Qo'lga tushsang, bo'lgay yana  
Pora chora. [1;130]

Shoir yuqoridagi "Moboda" she'rida bugungi kun jamiyatining global muammosi bo'lgan korrupsiyaning qanchalik kuchga ega ekanligini qisqa satrlar orqali keng tasvirlay olgan. Bu tarzda mavzularni qog'ozda o'ramasdan olib chiqish Iqbol Mirzo she'riyatining o'ziga xosligini yorqin isboti hisoblanadi. Bundan tashqari, shoirning aksariyat she'rlari barmoq vaznida yozilgan bo'lib, turoqlanishi she'r ritmining jozibasini yanada oshirgan."Barmoq she'r sistemasi misralarda –bo'g'inlarning muayyan miqdoriga va izchil takroriga bir xil tuproqlarining o'ziga xos guruhlanishiga asoslanadi. [5;190]

Ichidan zil ketib, mag'rur sirtida,  
Qoshiga qor qo'nib, qirov-murtida.  
Ish izlab yurgandir, o'ris yurtida,  
Men bunda do'st izlab, zor-u nolonman.[1;105]

Ushbu misralar o'z yurti qolib, o'zga mamlakatlarda sarson-sargardon bo'lib yurgan vatandoshlarimizga ishora deb aytishimiz mumkin. Musofirlikning azobi, Vatan sog'inchi nechog'lik ekanligini "ichidan zil ketib", "qoshiga qor qo'nib" so'zlari orqali

anglab olish va keng tasavvur hosil qilishning o'zi ijodkorning serqirra va mahoratli ekanidan dalolat.

Sharmandaga kengdir, bugun internet,  
Sichqon har joyga bosh suqib turubdi.  
Muqbil toshotarlar o'rniga surbet,  
Muxbir toshotarlar chiqib turubdi!

Bir qarashda hazilomuz ko'ringan bu misralarda bugungi kunning yechimi topilmayotgan masalalardan biri bo'lgan ijtimoiy tarmoqlar va undagi o'zlarini jurnalist deb biluvchi, shov-shuv bo'lsin deb yolg'on va bo'htonlarni yozibchiqayotgan insofsiz shaxslar qalamga olingan. Zamon bilan hamnafas shoirimiz internetning insoniyat hayotiga qanchalik xavf solayotgani, chuqur kirib, hayotimizning ajralmas bo'lagiga aylanib borayotganligini anglashimizga sababchi bo'lishga harakat qilmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytishim joizki, har qanday shoirning millati, Vatani oldidagi mas'uliyatini bilish uchun uning ijtimoiylik balqigan namunalaridan izlash o'rinli. Shuningdek, bizning el suygan, o'zbek xalqining yuragidan chuqur o'rin egallagan atoqli O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzo ijodida ijtimoiy lirika o'zgacha ruh, ma'no va talqindadir. Bularning barchasi yetuk ijodkorning hech kimga o'xshamagan Vatanga muhababat, sadoqat, fidokorlik bilan yo'g'rilgan qalb nolalari borligini isbotidir. Har bir ijodkorga haqiqiy shoirlik darajasini uning xalqi beradi. Iqbol Mirzo ham xalq g'amini kuylagan, o'zbekning mard shoirlaridan biri bo'lib, millatimiz faxriga aylanib bormoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Iqbol Mirzo. Aytgil do'stim nima qildik, Vatan uchun, Toshkent, O'zbekiston, 56-bet.
2. Iqbol Mirzo. Ko'nglingda nima bor bilmayman, Sharq 2020,69-bet.
3. Iqbol Mirzo. Tanlangan asarlar, Toshkent, Adabiyot, 2024, 298-bet
4. "Til va adabiyot ta'limi jurnali", 2015-yil 8-son, M. Hakimovning, Lirik tur va uning o'ziga xosliklari. 25-bet.
5. Umirov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi, Toshkent, A. Qodiriy nashriyoti 2004. 190-bet.